


TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2024- YIL YANVAR-IYUN OYLARIDA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR



Boshqa va kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlar

ulushi

35,5 %

31 921,2
mlrd. so'm

Jami asosiy kapitalga investitsiyalar

O'sish sur'ati

143,2 %

O'z
mablag'lari

24,0 %

ulushi

27,2 %

8 672,1
mlrd. so'm

3 191,2
mlrd. so'm

90,0 %

10,0 %

ulushi

ulushi

28 730,0
mlrd. so'm

Markazlashmagan manbalar


ulushi

Markazlashgan manbalar

2024- yilning yanvar-iyun oylarida 31 921,2 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ulardan korxona, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 24,1 % yoki 7 676,8 mlrd. so'm moliyalashtirildi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 10,0 % ni yoki 3 191,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 28 730,0 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalarning 90,0 % ni tashkil etdi.



Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd.so'm



2024- yilning yanvar-iyun oylarida korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 5 539,9 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 17,4 % ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 6,7 % i yoki 2 136,9 mlrd. so'mi o'zlashtirildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 8 672,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 530,4 % ni tashkil etdi.

2024- yil yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi mlrd.so'mda	2023- yil yanvar-iyunga nisbatan %da	Ulushi % da
Toshkent viloyati	31 921,2	143,2	100
Nurafshon sh	711,6	74,6	2,2
Olmaliq sh	10 262,2	149,4	32,1
Angren sh	2 678,1	278,2	8,4
Bekobod sh	1 263,0	97,3	4,0
Ohangaron sh	558,4	116,7	1,7
Chirchiq sh	1 569,0	114,8	4,9
Yangiyo'l sh	183,2	101,5	0,6
Oqqo'rg'on t	404,6	501,4	1,3
Ohangaron t	1 975,2	141,3	6,2
Bekobod t	272,1	114,8	0,9
Bo'stonliq t	1 079,7	91,0	3,4
Bo'ka t	420,3	308,6	1,3
Quyi Chirchiq t	885,7	98,6	2,8
Zangiota t	1 545,1	147,5	4,8
Yuqori Chirchiq t	3 753,8	248,9	11,8
Qibray t	1 351,1	108,3	4,2
Parkent t	146,6	54,9	0,5
Piskent t	385,9	417,2	1,2
O'rta Chirchiq t	450,0	63,3	1,4
Chinoz t	522,7	222,8	1,6
Yangiyo'l t	840,9	116,2	2,6
Toshkent t	662,0	166,4	2,1



Qurilish-montaj ishlari

48,9 %



42,5 %

Mashina, uskuna, inventar

8,6 %



Boshqa xarajatlar

Toshkent viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish-montaj ishlari bo'yicha 15 614,6 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 48,9%), mashina, uskuna va inventarlarga 13 554,6 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 42,5 % ini tashkil etdi va boshqa xarajatlarga 2 752,0 mlrd. so'm ya'ni 8,6 % i o'zlashtirildi.

Yangi qurilish

73,5 %

Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya


15,4 %

Boshqa yo'nalishlar

Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent tumanida kuzatildi – 78,7 % yoki 520,7 mlrd. so'm.

Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja Yuqorichirchiq tumanida kuzatilib, 19,2 % ni yoki 721,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha Yuqorichirchiq tumanida eng yuqori ko'rsatkich – 68,2 % yoki 2 558,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Toshkent viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan % da



Hududlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

mlrd. so‘m

	Jami	To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar	O‘z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar
Toshkent viloyati	21 120,4	8 672,1	1 100,8	11 347,5
Nurafshon sh	206,5	20,4	164,4	21,7
Olmaliq sh	8 480,5	135,9		8344,7
Angren sh	1 812,1	1 654,6		157,5
Bekobod sh	695,1	138,0		557,1
Ohangaron sh	325,3	325,3		
Chirchiq sh	914,7	547,6	34,7	332,4
Yangiyo‘l sh	107,2	47,9	26,2	33,0
Oqqo‘rg‘on t	302,8	114,4		188,5
Ohangaron t	1 597,7	1 285,5		312,2
Bekobod t	148,4	63,0		85,4
Bo‘stonliq t	340,7	117,1	131,9	91,7
Bo‘ka t	290,2	182,5		107,6
Quyi Chirchiq t	590,9	219,9	152,4	218,6
Zangiota t	577,6	236,7	262,3	78,6
Yuqori Chirchiq t	2 991,4	2 808,8		182,6
Qibray t	320,0	127,0	84,5	108,5
Parkent t				
Piskent t	228,4	176,9		51,5
O‘rta Chirchiq t	205,4	42,0		163,4
Chinoz t	322,0	246,4	7,5	68,1
Yangiyo‘l t	560,2	119,4	236,7	204,0
Toshkent t	103,3	62,8		40,4

2024- yil yanvar-iyun oylarida 8 659,9 mlrd. so‘m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 62,8 % ini xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o‘zlashtirildi.

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 4 055,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi va qolgan 4604,1 mlrd. so‘m xorijiy kreditlar hisobiga to‘g‘ri keldi.

E'TIBORINGIZ UCHUN RAXMAT!

Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: **(71) 202-86-70,**